

**DAVLAT VA XUSUSIY SEKTORDA KOMPLAYENS NAZORAT
JORIY ETISHNING AMALIY JIHA TLARI**

O'roqov Abbosxon Nuroli o'g'li

Qibray tumani adliya bo'limi bosh maslahatchisi

abboskhonorov@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada davlat va xususiy sektorda komplayens nazorat joriy etishning amaliy jihatlari tahlil etiladi. Yakunda, muallif tomonidan, sohani rivojlantirishga doir tegishli taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: davlat, xususiy sektor, komplayens, nazorat.

**ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ВНЕДРЕНИЯ КОНТРОЛЯ ЗА
СООТВЕТСТВИЕМ В ГОСУДАРСТВЕННОМ И ЧАСТНОМ
СЕКТОРАХ**

Уроков Аббасхон Нуроли угли

Главный советник отдела юстиции Кибрайского района

abboskhonorov@gmail.com

Аннотация: в статье анализируются практические аспекты внедрения комплексного надзора в государственном и частном секторах. В заключение автор дает соответствующие предложения и рекомендацию по развитию отрасли.

Ключевые слова: государство, частный сектор, соблюдение, контроль.

**PRACTICAL ASPECTS OF IMPLEMENTING COMPLIANCE
CONTROL IN THE STATE AND PRIVATE SECTOR**

Orokov Abboskhon Nuroli ugli

Chief Advisor of the Justice Department of the Kibray District

abboskhonorov@gmail.com

Annotation: this article analyzes the practical aspects of introducing compliancy control in the state and private sectors. Finally, the author gives

relevant proposals and recommendations for the development of the industry.

Keywords: *state, private sector, compliance, control.*

Davlat va xususiy sektorda komplayens nazorat joriy etishning amaliy jihatlariga qaraydigan bo'lsak, xorijiy davlatlar tajribasi asosida O'zbekistonda Korrupsiyaga qarshi komplayens nazorat tizimining samarali modellari qo'llanib kelinmoqda. Bugungi kunyoning 150 dan ortiq davlatlaridla komplayens nazorat tizimi yo'lga qo'yilgan hamda muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda.¹

O'zbekistonda dastlab "Uzavtosanoat" AJ tizimida xalqaro yuridik firma hisoblangan "White and Case LLR" bilan hamkorlikda Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat tizimi xalqaro standartlar asosida joriy etildi. Komraniyada alohida shtat birliklariga ega bo'lgan xalqaro standartlar talabiga muvofiq to'g'ridan-to'g'ri boshqaruv rahbariyati nazoratidagi komplayens xizmati tashkil etildi.

2018-yil 17-yanvarida "GM Uzbekistan" AJ kuzatuv kengashi tomonidan "Komplayens bo'yicha yo'riqnoma" (Compliance handbook)² va "Odob-ahloq kodeksi va komplayens" (Code of ethics and compliance)³ kabi faoliyat yo'nalishining yuridik asoslari tasdiqlandi.

Mamlakatimizda mazkur jarayonlarning davomi sifatida davlat va xususiy sektorda Korrupsiyaga qarshi kurash sohasida profilaktik chora-tadbirlarni mustahkamlash hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasini tartibga solishga qaratilgan 2017-yil 3-yanvardagi O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga

¹ [Электрон манба]. URL: <https://www.transparency.org//2019>.

² Compliance handbook//dated January 17, 2018//Approved by Supervisory Board of JSC GM Uzbekistan [Электрон манба]. URL: <https://uzautomotors.com/companies/compliance>.

³ Code of ethics and compliance//dated January 17, 2018//Approved by Supervisory Board of JSC GM [Электрон манба]. URL: <https://uzautomotors.com/companies/compliance>.

qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi va unda Korrupsiya, Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar, manfaatlar to'qnashuvi, ushbu sohadagi vakolatli davlat organlari va shu kabi boshqa munosabatlar tartibga solingan bo'lsada, ammo qonunning qabul qilinishi komplayens xizmati va uni tashkil etish mexanizmlari bilan bog'liq normalarni aks ettirmadi.

Qonunnig ijrosi asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2017 yildagi PQ-2752-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "2017-2018 yillarga mo'ljallangan Korrupsiyaga qarshi kurashish Davlat dasturi"ning 33- va 36-bandlari xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida Korrupsiyaga qarshi qonunchilikka faoliyatini tashkil etadigan ichki nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, ish yuritish odobi qoidalari o'rnatish kabi choralarni o'z ichiga qamrab oladigan Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarni qabul qilish yo'li Korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini joriy etish nazarda tutildi.⁴

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga asosan Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi tashkil etildi. Shuningdek, mazkur Farmon asosida 2020-2021-yillarda barcha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi ("komplayens-nazorat") ni joriy etish bosqichma bosqich amalga oshirildi.

⁴ Internet manba: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qarori, 30.11.2018 yildagi 2181-III-son - <https://lex.uz/ru/docs/-5191159>.

Xususan, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, ustav kapitalida davlat ulushi bo'lgan korxonalar, shu jumladan banklarda Korrupsiyaga qarshi kurashishning xalqaro vositalari asosida Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini joriy etish va samarali faoliyat ko'rsatishini tashkillashtirish, monitoringini olib borish, shuningdek, ularning mazkur sohadagi faoliyati bo'yicha reytingini tuzish vazifasi yuklatilgan.

Shuningdek, qarorga ko'ra, 2021-yil 1-oktabrdan boshlab barcha davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan Qoraqallog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarida mavjud shtat birliklari doirasida Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo'lga qo'yish vazifasi belgilandi.

Joriy holatida Korrupsiyaga qarshi kurash Agentlihi tomonidan davlat idoralari faoliyatida Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmani joriy etish yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar natijalari:

- ✓ 2024-yilning 1-iyul holatiga 94 ta davlat tashkilotlari, shu jumladan banklarda 1340 nafar shtat birligidan iborat Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo'lga qo'yildi;
- ✓ xalqaro standartlar asosida Korrupsiyaga qarshi 10 ta ichki idoraviy hujjatlar va mazkur tuzilmalar faoliyatini tartibga soluvchi "Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to'g'risida"gi Namunaviy nizom ishlab chiqilib, davlat tashkilotlari faoliyatiga tadbiq etildi;

✓ xorijiy ekspertlar ishtirokida davlat tashkilotlarining **1000 dan** ortiq ichki nazorat tuzilmalari xodimlarining malakasini oshirish ta'minlanib, aynan ISO 37001 standarti bo'yicha esa xodimlarning **555 nafari (47%)** malaka oshirish kurslarida o'qitilib, sertifikat berilgan **Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplayens)** tizimini joriy etish bo'yicha **4 ta** uslubiy qo'llanma chop etildi;

✓ joriy yil holatiga **33 ta** davlat tashkiloti, **1 ta** xususiy bank **“Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi”** ISO 37001:2016 xalqaro standart sertifikatiga ega bo'ldi.

Xalqaro ekspertlar tavsiyasiga asosan tashkilotning ushbu sertifikatni qo'lga kiritishi mamlakatning xalqaro reytinglarda ustuvor ahamiyat kasb etishi, investitsion jozibadorligini oshirish va investorlar kirib kelishini ta'minlashga xizmat qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Ichki nazorat tuzilmalari xodimlarini ishga qabul qilishni shaffof tanlov asosida amalga oshirish tizimi yo'lga qo'yilib, tuzilma xodimlarini tanlash jarayonlari Internet tarmog'ida jonli efirga uzatish tartibi joriy etildi;

“Yuksalish” umummilliy harakati va “Mintaqaviy muloqot” xalqaro nodavlat tashkiloti bilan hamkorlikda **“O'zbekistonda birinchi anti-Korrupsiya laboratoriyalarini yaratish”** loyihasi doirasida **“Bolalarni maktabga qabul qilish bosqichida Korrupsiyaviy xavf-xatarlar”** hamda **“Davlat-xususiy sheriklik asosida maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etish va ularning faoliyatida Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash”** kabi yo'nalishlarda amaliy tadqiqotlar o'tkazildi.

O'tgan davrda vazirlik va idoralarda **“komplayens nazorat”** tizimining samarali joriy etilishi ijobiy natijalar bera boshladi.

Jumladan, 2022-yil yakunlari bo'yicha ichki nazorat tuzilmalari tomonidan 66 ta davlat tashkilotda o'tkazilgan o'rganish natijasida 3101 ta holatda 592,4 mlrd. so'mdan ortiq moliyaviy qonunbuzilishi holatlari aniqlangan. Moliyaviy xato va kamchiliklarning 1,5 mlrd so'mi Qishloq xo'jaligi vazirligi, 23,1 mlrd so'mi Davlat bojxona qo'mitasi, 18,4 mlrd so'mi "O'zkimyosanoat", 19,2 mlrd so'mi "O'zsuvta'minot" AJlari, 2,2 mlrd so'mi "Milliybank", 1,3 mlrd so'mi "Xalqbanki" ATBlari hamda boshqa vazirlik va idoralar hissasiga to'g'ri kelgan. Misol uchun birgina "O'zbekneftgaz" AJda ichki nazorat tuzilmasining samarali tashkil etilishi natijasida tuzilma tomonidan 111,7 mlrd so'mlik moliyaviy qonun buzilishi, undan 4,2 mlrd so'mlik iqtisodiy zarar holatlari aniqlangan.⁵

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Davlat boshqaruvi sohasida Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-240-son Qarori asosida davlat tashkilotlarining Korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatini takomillashtirish doirasida ularga yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda **Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tizimi** joriy etildi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash natijalari bo'yicha ushbu xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari tizimli ravishda ko'rish maqsadida Agentlik tomonidan "Korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron

⁵ <https://anticorruption.uz/oz/korrupsiyaning-oldini-olish-va-komplayens-nazorat-tizimini-joriy-etish-boshqarmasi-tog'risida>.

reyestri” shakllantirilgan. 2023-yilda Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashdan o'tkazish uchun 62 ta davlat tashkilotining ro'yxati shakllantirildi va ularga [“E-Anticor.uz”](http://E-Anticor.uz) elektron rlatformasidan foydalanish imkoniyati yaratildi.

Joriy yil 10-aprel holatiga Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashdan o'tkazish yuzasidan elektron platformaga yuborilgan ma'lumotlar asosida 39 ta vazirlik va idora uchun *(har bir funktsiya bo'yicha aniqlangan Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning tavsifi va darajasi, ularni bartaraf etish bo'yicha choralarni o'z ichiga oluvchi)* Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalari to'liq shakllantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-81-son Qarori asosida 2022-yildan boshlab, davlat tashkilotlari, mahalliy hokimiyat organlarining Korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatiga oid samaradorlik ko'rsatkichlarini belgilash va ularni ilg'or xalqaro standartlar asosida baholash amaliyoti yo'lga qo'yildi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekistonda Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risidagi Farmoni Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini oshirish, eng yuqori darajadagi qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy obro'-e'tiborini oshirishga qaratilgan. Farmon bilan 2019-2020-yillarda Korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi qabul qilindi va Nig'matulla Yo'ldoshev boshchiligidagi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Respublika idoralararo komissiyasining yangilangan tarkibi tasdiqlandi. Qoraqalog'iston Resublikasi

Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq derutatlari Kengashlari, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlarining tarkibida Korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyalari tashkil etiladi. Ular joylarda Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ishlarning holatini kompleks o'rganish, joylarda Korrupsiya ko'rinishlari namoyon bo'lishiga olib keladigan tizimli muammolar va Korrupsiyaning holati to'g'risida O'zbekiston Oliy Majlisi rahbarlarining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari bo'yicha qo'mitalariga ushbu sohadagi faoliyatni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritgan holda muntazam ravishda axborot berib boradi.

Idoraviy Korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali dasturlarini amalga oshirish, ularning hisobdorligi va faoliyatining ochiqqligi mexanizmlarini joriy etish, odob-axloq qoidalariga rioya etilishi va manfaatlar to'qnashuvining oldi olinishini ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni bajarish orqali tegishli sohada Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga imkon yaratayotgan sabablar va shartsharoitlarni tag-tomiri bilan yo'qotish davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining birinchi darajadagi muhim vazifasi hisoblanadi. Davlat organlari zimмага yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda yuzaga keladigan Korrupsiya xavf-xatarlarini vaqti-vaqti bilan majburiy baholab boradi, uning yakunlari bo'yicha:

1. Korrupsiya xavf-xatariga eng ko'r duch keladigan davlat xizmatchilarining faoliyat sohalari va lavozimlari, shuningdek, ularning funksiyalari (vakolatlari)ning ro'yxatini shakllantiradi.
2. Idoraviy Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlari ijrosining har

choraklik monitoringini amalga oshiradi va Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimum darajaga tushirish choralarini ko'radi.

3. Idoralararo komissiya bilan kelishgan holda har yilgi idoraviy Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlarini tasdiqlaydi.

4. Har yili idoralararo komissiyaga tegishli organlar va tashkilotlar faoliyatida, shu jumladan, qonunchilikni va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish orqali Korrupsiya xavf-xatarlariga barham berish bo'yicha takliflarni kiritadi.

Korrupsiyaning xavfi bugungi kunda jamiyat va davlatni, shuningdek xalqaro tashkilotlarni ham jiddiy xavotirga solmoqda. Korrupsiyaning ta'siri va salbiy oqibatlarini ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda mazkur illatga qarshi kurashishda barcha mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bir xil harakat qilmoqda. Yevropa mamlakatlarida bo'lgani kabi Osiyo davlatlarida ham Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu davlatlarda mazkur turdagi jinoyatlar uchun turli xil javobgarlik belgilangan.

Xulosa qilib aytganda, davlat va xususiy sektorda komplayens nazoratni joriy etishning asosiy amaliy jihatlari qonunchilik bazasini yaratish, Korrupsiyaviy xavf-xatarlarini baholash va xavf-xatarlarga qarshi samarali nazorat choralar ishlab chiqishdan iborat. Xususiy sektorda komplayens nazorat samarali tashkil etilsa, kompaniya faoliyatida qonunchilik talablariga to'liq rioya etishni ta'minlash, xatolarni oldini olish va obro'ni saqlab qolish imkonini beradi. Shu bilan birga, uning barqaror va muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://www.transparency.org//2019>.
2. Compliance handbook//dated January 17, 2018//Approved by Supervisory Board of JSC GM Uzbekistan [Электрон манба]. URL: <https://uzautomotors.com/companies/compliance>.
3. Code of ethics and compliance//dated January 17, 2018//Approved by Supervisory Board of JSC GM.
4. <https://uzautomotors.com/companies/compliance>.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qarori, 30.11.2018 yildagi 2181-III-son - <https://lex.uz/ru/docs/-5191159>.
6. <https://anticorruption.uz/oz/korrupsiyaning-oldini-olish-va-komplayens-nazorat-tizimini-joriy-etish-boshqarmasi-togrisida>.
7. <https://e-anticor.uz/oz/ratings/index?page=4&per-page=25>.